

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA MUROJAATLARNI KO'RIB CHIQISH DAVOMIDA SHAXSNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASH ASOSLARI



Jo'raboyev Ozodbek Abduqaxxorovich

*Ichki ishlar vazirligi, Murojaatlar bilan ishlash
boshqarmasi boshlig'i*

Annotatsiya. Maqolada ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish jarayonida inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy, tashkiliy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Xususan, murojaatlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, tekshirish va ular yuzasidan qaror qabul qilish jarayonlarida qonun ustuvorligini ta'minlash, shaffoflik, hisobdorlik va fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Shaxs huquqlari, murojaat, ichki ishlar organi, murojaatni ko'rib chiqish, huquqiy kafolat, javobgarlik, davlat organlari, elektron murojaat, huquqiy himoya, shaffoflik, hisobdorlik, jismoniy shaxs, yuridik shaxs, huquqiy asos, jinoyat-protsessual qonunchilik, xalqaro standartlar.

ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА ПРИ РАССМОТРЕНИИ ОБРАЩЕНИЙ В ОРГАНАХ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ


Аннотация. В статье проанализированы правовые, организационные и практические аспекты обеспечения прав и свобод личности в процессе рассмотрения обращений физических и юридических лиц органами внутренних дел. В частности, исследованы механизмы обеспечения верховенства закона, прозрачности, подотчётности и защиты правовых интересов граждан при приёме, регистрации, проверке обращений и принятии решений по ним.

Ключевые слова: права личности, обращение, органы внутренних дел, рассмотрение обращений, правовые гарантии, ответственность, государственные органы, электронное обращение, правовая защита, прозрачность, подотчётность, физическое лицо, юридическое лицо, правовая основа, уголовно-процессуальное законодательство, международные стандарты.

WAYS TO ENSURE THE RIGHTS AND FREEDOMS OF INDIVIDUALS DURING THE REVIEW OF APPEALS IN INTERNAL AFFAIRS BODIES

Abstract. The article analyzes the legal, organizational, and practical aspects of ensuring the rights and freedoms of individuals during the process of reviewing appeals from natural and legal persons by the internal affairs bodies. In particular, it examines mechanisms for ensuring the rule of law, transparency, accountability, and protection of citizens' legal interests during the acceptance, registration, verification of appeals, and decision-making processes.

Keywords: individual rights, appeal, internal affairs bodies, consideration of appeals, legal guarantees, responsibility, state authorities, electronic appeal, legal protection, transparency, accountability, natural person, legal entity, legal framework, criminal procedure legislation, international standards.



Demokratiya yo'lini tanlagan har qanday davlatda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlashning ishonchli mexanizmi zarur. Ushbu mexanizm inson huquqlarini ta'minlaydi, ro'yobga chiqarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Dunyoda inson huquqlariga doir umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari va qoidalari asosan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi [1], Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt [2], Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt [3] hamda boshqa hujjatlarda belgilangan. Ushbu xalqaro hujjatlar inson huquq va erkinliklarining **asosiy xalqaro normativ manbai** hisoblanadi. Ular barcha insonlar uchun teng va daxlsiz huquqlarni kafolatlovchi **axloqiy, siyosiy va huquqiy dastur** sifatida qabul qilingan.

O'z navbatida, insonlar jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalar, qonun hujjatlarida belgilangan haq-huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlaridan to'liq xabardor bo'lmas ekan, uni ro'yobga chiqarishga harakat qilmaydi va faollik ko'rsatmaydi [4]. Masalan, Fransiya Konstitutsiyasining 15-moddasida "jamiyat o'z ma'muriyatining xohlagan mansabdor shaxsidan hisobot talab qilish huquqiga egaligi mustahkamlab qo'yilgan" [5].

Mamlakatimizda esa fuqarolarning murojaat qilish huquqini himoya qilish tizimining barcha huquqiy asoslari Konstitutsiya va uning asosida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan. Binobarin, har bir jismoniy va yuridik shaxs o'zining huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun davlat organlari, tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslariga qonunda belgilangan tartibda murojaat qilish huquqiga egadirlar.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalar qatori huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, tizim faoliyatini mutlaqo yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish, soha xodimlarining aholi turli qatlamlari bilan

doimiy muloqoti va hamkorligini yanada mustahkamlash borasida ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlarning negizida, eng avvalo, inson huquqlari va manfaatlarini yotadi. Yangilangan Konstitutsiyamizda belgilab berilgan normalar asosida mamlakatimizda inson, uning huquq va erkinliklari, sha'ni hamda qadr-qimmati eng oliy qadriyat darajasiga ko'tarildi.

Shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash haqida so'z borganda, 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendum natijasiga ko'ra qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Bunga qadar Konstitutsiyaga jami 15-marta o'zgartish kiritilgan bo'lib, bu safar esa o'zgarishlar ko'lami kattaligi sabab uning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh Qomusimizdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

Konstitutsiyaning 1-moddasidagi "O'zbekiston – suveren demokratik respublika" [6] jumlasini "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, **huquqiy**, ijtimoiy va dunyoviy davlat", deb o'zgartirildi [7].

O'zbekiston o'zini "**huquqiy davlat**" deb e'lon qilishi bilan barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga qurilishi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko'z bilan qarash talab etilishini belgiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo'ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo'ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta'minlaydi.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda murojaat qilish huquqini himoya qilish tizimining barcha huquqiy asoslari yangilangan Konstitutsiya va uning asosida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan. Binobarin, har bir jismoniy va yuridik shaxs o'zining huquq va erkinliklarini himoya qilishi hamda qonuniy

manfaatlarini ta'minlashi uchun davlat organlari, tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslariga qonunda belgilangan tartibda murojaat qilish huquqiga egadirlar. Bu norma yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 40-moddasi va yangi tahrirdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunning 32-moddasida kafolatlab qo'yilgan.

Jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari borasida, "eng muhimi, Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarni kafolatlash, ya'ni amalga oshirishini ta'minlashdir. Buning uchun mukammal tizim yaratilishi kerak. Huquq va erkinliklarning kafolatlari Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarni ta'minlashni nazarda tutuvchi huquq normalari va maxsus mexanizmdan iborat bo'ladi. Huquqiy normalar mavjud bo'lsa-da, ularning amalga oshirishini ta'minlovchi mexanizm bo'lmasa, huquq va erkinliklar qog'ozda qolib ketaveradi"[8].

Davlat o'z funksiyalarini bajarishda ko'zlagan maqsadlariga erishish yo'lida huquq normalarini yaratadi. Mazkur normalar yordamida tegishli sohadagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Huquqiy tartibga solish esa o'ziga xos ta'sir etish vositalari (mexanizm) orqali amalga oshiriladi. Chunki, ma'lum bir huquqni Konstitutsiya yoki maxsus qonunlarda mustahkamlab qo'yishning o'zi ijrosi ta'minlandi degani emas, eng avvalo, uni amalga oshirishning mukammal mexanizmini ishlab chiqish zarur.

Bu borada, yuridik fanda turli yondashuvlar mavjud. Masalan, A.N.Izatovning fikricha, "fuqarolarning murojaatlari fuqarolik jamiyati hamda aholi bilan hokimiyat organlarining o'zaro aloqa mexanizmini rivojlanishining muhim institutidir"[9].

M.V.Skryabinaning fikricha, "davlat organlariga murojaat qilish konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish mexanizmi deganda, o'zaro aloqador va o'zaro bog'langan elementlar yig'indisini (normativ huquqiy baza, tegishli huquqiy vakolatga ega bo'lgan subyektlar, yuridik vositalar va huquqiy munosabatlar) tushunish lozim. Ularning faoliyat yuritishi murojaat qilish konstitutsiyaviy

huquqining samarali amalga oshirilishini ta'minlash borasidagi umumiy vazifasini ro'yobga chiqarishga qaratilgan.

Ommaviy hokimiyat organlariga murojaat qilish konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish mexanizmi aniq prinsiplar asosida qurilgan, xususan, erkinlik, ixtiyoriylik, bepullik, qonuniylik, ochiqlik, demokratik, fuqarolarning murojaat qilishda tengligi, shuningdek, murojaatlarni o'z vaqtida har tomonlama ko'rib chiqish kabi prinsiplar shular jumlasidandir"[10].

S.O.Yuldashovning fikricha, "jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini amalga oshirish mexanizmi – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat etishga oid instansiyalar, qabul qilish tartibi, subyektlar, ko'rib chiqish va javob yo'llash vaqti, shikoyat qilish va o'rnatilgan qoidalarni buzganlik uchun javobgarlikni belgilovchi tartib-taomillardir"[11].

Darhaqiqat, jismoniy va yuridik shaxslar qanchalik o'z huquq va erkinliklaridan keng foydalansalar, ular shunchalik jamiyatdagi mavjud illatlarga qarshi keskin kurasha oladilar. Hech kim fuqarolar ustidan tazyiq o'tkaza olmaydi [12].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida murojaat etish huquqiga doir huquqiy norma belgilangan. Bu umumiy konstitutsiyaviy qoidadir. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida esa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslariga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga bog'liq munosabatlar nazarda tutilgan. Bu yerda yuqorida qayd etilgan konstitutsiyaviy qoida aniqlashtirilganini ko'rishimiz mumkin.

Mazkur qonun va uni amaliyotga tatbiq etish borasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan Namunaviy nizom ijro uchun jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining subyektlariga yetkaziladi va ijroga qaratiladi.

Bundan tashqari, yuqorida qayd etilgan qonunda nazarda tutilgan huquqiy normalarda

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari instituti subyektlarining huquq va burchlari, vakolat doiralari, shuningdek ularni amalga oshirish vositalari ko'rsatilgan.

Xuddi shu kabi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida murojaat etish huquqini kafolatlovchi huquqiy norma nazarda tutilgan bo'lib, bu sohaga oid munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi doirasida amalga oshiriladi. Bu huquq normasiga asosan jismoniy va yuridik shaxslar o'zlarining Konstitutsiya va boshqa qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilgan deb topgan taqdirda, ularni sud orqali himoya qilishi mumkin.

Biroq, jismoniy va yuridik shaxslar murojaat etish huquqini amalga oshirishlarida boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini, shuningdek jamiyat va davlat manfaatlarini buzmasliklari shart bo'lib, ushbu talablar Konstitutsiyaning 60-moddasi va "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunning 15-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

Aks holda, tuhmat va haqoratdan iborat murojaat berganlik O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 40–41 moddalari [13] hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 139–140 moddalarida [14] nazarda tutilgan huquqiy normalar bo'yicha javobgarlikka sabab bo'ladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini amalga oshirish mexanizmining huquqiy normasi ijtimoiy hodisa sifatida murojaatlarga doir huquqiy tizimning bosh tushunchasi bo'lib, murojaat qilish huquqining shakllanishi va amalga oshirilish jarayoni, murojaatlarga doir qonunlar, barcha yuridik tushunchalar hamda bu sohadagi nazariyalardan iboratdir. Mazkur toifadagi murojaatlar sohasiga doir tegishli normativ-huquqiy hujjatlar huquq manbaining boshqa turlari shaklida namoyon bo'ladi. Biroq, ushbu normalarning mavjudligi jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasidagi munosabatlarni to'liq hal

etishini anglatmaydi.

Bu masalani huquqiy yechimini topish uchun davlat organlari muayyan tarmoqda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibini belgilovchi normativ tuzdagi hujjatlar (nizomlar, qoidalar, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlar) qabul qilishlari kerak bo'ladi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2021-yil 1-yanvardagi 2-son buyrug'i bilan Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom [15] tasdiqlangan bo'lsa, Ichki ishlar vazirining 2024-yil 24-apreldagi 200-son buyrug'i bilan yuqorida keltirilgan buyruq bekor qilinib, yangi nizom tasdiqlandi.

Bugungi kunda ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tarkibiy va hududiy bo'linmalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibini belgilaydi [16].

Undagi huquqiy normalar jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining subyektlari tomonidan o'z huquq va burchlarini amalga oshirish yuzasidan bo'ladigan o'zaro huquqiy munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Bu huquqiy munosabatlar ichki ishlar organlarida murojaatlar bilan ishlash sohasidagi huquq normalarini hayotga tatbiq etishdir. Bunda subyektiv huquq va burchlarga rioya etiladi, ulardan foydalaniladi va tegishli talablar bajariladi. Demak, yuqorida qayd etilgan huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining huquqiy munosabatlaridir. Aniqroq aytganda, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini amalga oshirish mexanizmini tashkil etuvchi huquqiy munosabatlar – huquqiy munosabatlarning tarkibiy qismi bo'lib, davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslariga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasidagi munosabatlar majmuidir. Ushbu huquqiy munosabatlarning asosiy subyektlari – jismoniy va yuridik shaxslar, davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridir. Jismoniy shaxslarga O'zbekiston

Respublikasi fuqarolari, xorijiy davlatlarning jismoniy shaxslari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, yuridik shaxslarga turli mulk shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar va xorijiy davlatlarning yuridik shaxslari kiradi.

“Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi qonunga muvofiq, ichki ishlar organlarining asosiy va birinchi darajadagi faoliyat yo'nalishini “fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish” tashkil etadi. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tushunchasi nihoyatda keng bo'lib, bu fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy, mulkiy, siyosiy, madaniy huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini sohasini qamrab olishi tizimga kelib tushayotgan murojaatlar solmog'i boshqa vazirlik va idoralarga nisbatan yuqori bo'lishning asosiy sababidir.

“Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi qonunning 16-modasida ichki ishlar organlarining asosiy majburiyatlari belgilangan bo'lib, ulardan biri sifatida aynan jinoyatlar, boshqa huquqbuzarliklar va hodisalar to'g'risidagi arizalar, xabarlar va boshqa axborotni, shu jumladan elektron shakldagi shunday ariza, xabar va boshqa axborotni qabul qilishi hamda ro'yxatga olishi, murojaat etuvchiga qonunchilikda belgilangan tartibda keyinchalik xabar bergan holda ular bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rishi belgilangan [17].

Ichki ishlar organlariga kelib tushayotgan murojaatlarning bir qismi sohaga oid xizmat ko'rsatishlar bilan bog'liq bo'lgan bir paytda, jinoyat va huquqbuzarliklar bilan bog'liq murojaatlar ham kelib tushayotgan murojaatlarning salmoqli qismini tashkil etadi. O'z-o'zidan ma'lumki, jinoyat va huquqbuzarlik bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqish va hal etish ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va jinoyat-protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solinib, mazkur masalalardagi murojaatlarni qabul qilish va ko'rib chiqishda shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlash tegishli kodekslar bilan mustahkamlangan.

Shu nuqti nazardan ham ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida Nizomda ko'rib

chiqish tartibi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, fuqarolik protsessual, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya, iqtisodiy protsessual qonun hujjatlari va boshqa qonunlar bilan belgilangan murojaatlarga hamda tarkibiy va hududiy bo'linmalarning o'zaro yozishmalariga nisbatan tatbiq etilmasligi belgilangan.

Nizomning 2-bobi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat etish huquqlari kafolatlari” deb nomlanib, undagi normalarda ichki ishlar organlarida murojaatlarni ko'rib chiqish davomida shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash yo'llari aniq belgilab berilgan. Xususan:

jismoniy va yuridik shaxslarga tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda ularning mas'ul xodimlariga yakka tartibda yoki jamoa bo'lib murojaat etish huquqi kafolatlanishi;

murojaat etish huquqi ixtiyoriy amalga oshirilishi;

hech kim biror-bir murojaatni himoya qilishga yoxud unga qarshi qaratilgan harakatlarda ishtirok etishga majbur qilinishi mumkin emasligi;

xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tarkibiy yoki hududiy bo'linmalarga ushbu Nizomga muvofiq murojaat etish huquqiga egaligi;

murojaat etish huquqidan foydalanayotganda jismoniy shaxslarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga, shuningdek, yuridik shaxslarning mulk shakli, joylashgan yeri (pochta manzili), tashkiliy-huquqiy shakllariga va boshqa holatlariga qarab kamsitishga yo'l qo'yilmasligi;

murojaatni ko'rib chiqishga mas'ul etib belgilangan xodim O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda qonunlari talablariga rioya etishi, ularning to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklari tiklanishi hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha o'z vakolatlari doirasida choralar ko'rishi shartligi;

ota-ona qarovisiz qolgan bolalarning ichki ishlar organlariga bevosita qilgan murojaatlarini to'liq ko'rib chiqish kafolatlanadi va bola to'liq

muomala layoqatiga ega emasligi sabablari bilan bunday murojaatlari ko'rib chiqilmasligiga yo'l qo'yilmasligi;

murojaatlarni ko'rib chiqishda jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti, yuridik shaxslarning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar ularning rozilgisiz, shuningdek, davlat sirini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini kamsituvchi ma'lumot va boshqa axborotning oshkor etilishiga yo'l qo'yilmasligi;

jismoniy va yuridik shaxs to'g'risidagi, murojaatga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarni aniqlashga yo'l qo'yilmasligi;

jismoniy shaxsning iltimosiga ko'ra uning shaxsiga doir ma'lumotlar oshkor etilmasligi.

Jismoniy shaxslarni, ularning vakillarini, jismoniy shaxs vakilining oila a'zolarini, yuridik shaxsni, uning vakilini va yuridik shaxs vakilining

oilalari a'zolarini ular o'z huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish yoki himoya qilish maqsadida ichki ishlar organlariga va ularning mas'ul xodimlariga murojaat etganligi, shuningdek, murojaatlarda o'z fikrini bildirganligi va tanqid qilganligi munosabati bilan ta'qib etish man etilishi kabi normalar qat'iy belgilangan.

Shuningdek, ichki ishlar organlarida murojaatlarni ko'rib chiqish davomida shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash ichki ishlar organlariga kelib tushgan murojaatni ro'yxatga olish bosqichidan boshlanishi Nizomda alohida etiborga olingan.

Xulosa qilib aytganda, xalq manfaatlariga xizmat qilish – ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy mezonini etib belgilanganligi bois, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan yo'llangan har bir murojaat alohida nazoratga olingan holda, belgilangan muddatlarda, imkon qadar ijobiy hal etilishi choralari ko'rilishi lozim.

Foydalanilgan manbalar

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948-yil 10-dekabr BMT Bosh Assambleyasi. (elektron manba <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>).
2. Международный пакт о гражданских и политических правах / Принят резолюцией 2200 A (XXI) Генеральной Ассамблеи ООН от 16 декабря 1966 года. (электрон манба <https://lex.uz/docs/2640479>).
3. Iqtisodiy ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. (elektron manba <https://lex.uz/docs/2686000>).
4. Yuldashov. S.O. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari: Dissertatsiya tadqiqoti. – Toshkent, 2021. – B. 56.
5. Fransiya Respublikasining Konstitutsiyasi.
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, 1991.
7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi / <https://lex.uz/docs/6445147>.
8. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. – Toshkent: Adolat, 2013. – B. 193.
9. Изатов А.Н. “Круглый стол” // Государственная служба и государственное управления. – Уфа, 2015. – С. 34.
10. Скрыбина М.В. Реализация конституционного права граждан на обращения в органы публичной власти: Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – Санкт-Петербург, 2007. – С. 15-16.
11. Yuldashov. S.O. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari institutining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari: Dissertatsiya tadqiqoti. – Toshkent, 2021. – B.64.
12. Husanov O.T., Karimova O., Azizov H., To'ychiyeva H., Karimov Z. Inson huquqlari. – T.:Sharq, 1997. – B. 44.
13. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. /<https://lex.uz/docs/97664>.
14. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi / <https://lex.uz/acts/111453>.
15. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2021-yil 1-yanvardagi 2-son buyrug'i.
16. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2024-yil 24-apreldagi 200-son buyrug'i.
17. O'zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi qonuni/<https://lex.uz/docs/3027843>.

MAHALLA JINOYATCHILIGINING OLDINI OLISHDA IJTIMOY PROFILAKTIKANING ROLI



Xasanov Shuxrat Erkinbayevich

Kriminologiya tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olishda ijtimoiy profilaktika tizimining ahamiyati yoritilgan. Ijtimoiy profilaktika tadbirlari “mahalla yettiligi” va tegishli davlat organlari hamkorligida “E-Ijtimoiy profilaktika” axborot tizimi orqali amalga oshirilayotgani, manzilli yondashuv, tahlil va nazoratning samaradorligi, huquqbuzarlikka moyil toifadagi shaxslar bilan individual ishlash mexanizmlari mufassal bayon etilgan. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha choralar ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy profilaktika, mahalla jinoyatchiligi, huquqbuzarliklarning oldini olish, profilaktika inspektori, obod va xavfsiz mahalla, jinoyatchilik sabablari, ijtimoiy moslashtirish, bandlik va moddiy yordam, xavfsiz muhit, manzilli chora-tadbirlar, profilaktika siyosati.

РОЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ ПРОФИЛАКТИКИ В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ ПРЕСТУПНОСТИ В МАХАЛЛЕ

Аннотация. В статье освещается значение системы социальной профилактики в борьбе с преступностью и её предупреждения. Раскрыты меры по социальной профилактике, осуществляемые в сотрудничестве «Махаллинской семёрки» и соответствующих государственных органов через информационную систему «E-Ijtimoiy profilaktika», эффективность адресного подхода, анализа и контроля, а также механизмы индивидуальной работы с лицами, склонными к правонарушениям. Также указаны существующие проблемы и меры по их устранению.

Ключевые слова: социальная профилактика, преступность в махалле, предупреждение правонарушений, инспектор профилактики, благоустроенный и безопасный махалля, воспитание и правовая грамотность, причины преступности, социальная адаптация, занятость и материальная помощь, безопасная среда, адресные меры, профилактическая политика.

THE ROLE OF SOCIAL PREVENTION IN PREVENTING CRIME IN THE MAHALLA

Abstract. This article highlights the importance of the social prevention system in combating and preventing crime. The article details the social prevention measures implemented through the cooperation of the “Mahalla Seven” and relevant state bodies via the “E-Ijtimoiy Profilaktika” information system, the effectiveness of targeted approaches, analysis and monitoring, and mechanisms for individual work with persons prone to offenses. Existing problems and measures to address them are also outlined.

Keywords: social prevention, mahalla crime, crime prevention, prevention inspector, prosperous and safe neighborhood, education and legal literacy, causes of crime, social adaptation, employment and material assistance, safe environment, targeted measures, prevention policy.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2019-yil 10-yanvar kuni Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 7-sonli ichki ishlar bo'limiga tashrifi davomida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi

kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi yo'nalishida quyidagilarni ta'kidlagan edi: “O'zbekistonda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jamoat tartibini ta'minlashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirildi. Keyingi ikki yilda sohaga doir 100 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi.

Jumladan, ichki ishlar organlari barcha bo'g'inlarining tuzilmasi va vakolatlari qayta ko'rib chiqilib, xodimlarning 65 foizi aholiga yaqin bo'lishi uchun mahallalarda ishlaydigan bo'ldi. Asosiy e'tibor jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasiga qaratildi. Buning uchun profilaktika inspektorlari soni qo'shimcha ming nafarga ko'paytirildi, ularning bevosita joylarda samarali xizmat o'tashi uchun munosib ijtimoiy-maishiy sharoit yaratib berildi. «Xavfsiz shahar», «Xavfsiz turizm», «Xavfsiz xonadon» tizimlari joriy etilgani, 24 soat patrullik xizmati yo'lga qo'yilgani natijasida odamlarda «adolat va qonun ustuvorligi»ga ishonch paydo bo'ldi. Darhaqiqat, huquqbuzarliklar profilaktikasi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o'zining natijasini bermoqda.

Tadqiqotimiz mavzusi bo'lgan mahalla jinoyatchiligining oldini olishda ijtimoiy profilaktikaning rolini ochib berishdan oldin jinoyatchilik va uning sabablari to'g'risida kriminolog olimlarning fikrlariga to'xtatilib o'tmoqchiman. Jumladan, ingliz huquqshunosi Ieremiya Bentam (1748–1832) o'zining «Ma'naviyat va qonunchilik asoslariga kirish» nomli asarida inson xulq-atvori va umuman, jinoyatchilikka ta'sir etuvchi 32 ta omilni sanab o'tadi. Ular orasida quyidagilar bor: inson sog'lig'i, kuchi, quvvati, jisman nomukammallik, bilim miqdori va sifati, aqliy qobiliyatlar kuchi, o'jarlik, moyillik, qiziqish, antipatiyaga moyillik, qiziqqonlik, ta'sirchanlik, simpatiya, pul bilan bog'liq holatlar, simpatiya orqali aloqalar, antipatiya orqali aloqalar, tana tuzilishi, ruhiyat, jins, yosh, ijtimoiy holat, tarbiya, iqlim, kelib chiqish, boshqaruv shakli, din va hokazo.

Sotsialist-utopistlar jinoyatchilik sabablarini shaxsiy mulkning mavjudligi va adolatsizlik bilan bog'laydilar. A. Sen-Simon (1760–1858) asarlarida jinoyatchilikning odamlar turmush sharoiti zaminida yashirin tub sabablari ko'rsatiladi. Sotsialist-utopistlar chayqovchilik, sudxo'rlik bilan bog'liq jinoyatchilikka ishora qilib, zo'ravonlik va ekspluatatsiya, tarbiyasizlik va yomon qonunlar sharoitida jinoyatchilikka qarshi kurashish behuda ekanligini ta'kidlaydilar.

XIX asrda yashagan rus demokratlari A.N. Gersen, V.G. Belinskiy, N.A. Dobrolyubov, N.G. Chernishevskiy ham jamiyatdagi jinoyatchilik sabablari to'g'risida o'xshash xulosalarga kelganlar.

N.F. Kuznetsova fikriga ko'ra, salbiy iqtisodiy, mafkuraviy, madaniy, tarbiyaviy, tashkiliy, boshqaruv, ijtimoiy-psixologik omillar majmui jinoyatchilikka sabab bo'ladi.

Professor V.S. Volkov g'ayriijtimoiy xulq-atvor deformasiyasining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, jinoyatchilik sabablari va shartlarini 3 guruh (kompleks)ga ajratishni taklif qiladi:

- jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq sabablar va shartlar;
- shaxsning jamiyatga integratsiyalashuvi, uning ijtimoiy-psixologik o'ziga xosliklari bilan bog'liq sabablar va shartlar;
- ijtimoiy munosabatlarni ijtimoiy-huquqiy tartibga solish va huquqiy tartibotdagi, huquqbuzarliklarning oldini olishdagi kamchiliklar bilan bog'liq sabablar va shartlar.

Professor A.S. To'xtaxojayev o'zining tadqiqotlarida o'g'rilik jinoyatlarining oldini olish uchun ijtimoiy muammolarga, xususan, ishsizlik, kambag'allik va oilaviy mushkulotlarga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, jinoyatchilikni oldini olishning samarali yo'li – ijtimoiy yordam, ta'lim va tarbiyani kuchaytirishdan iborat. Yoshlar va aholi o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash orqali jinoyatchilikni kamaytirish mumkin, degan xulosaga kelgan.

Yuqoridagi kriminolog olimlarning aksariyati jinoyatchilik va uning oldini olishda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, shaxslarning dunyoqarashi va shunga o'xshash ijtimoiy profilaktika doirasida amalga oshiriladigan yo'nalishlarga yaqin fikrlarni bildirishgan. Bu esa hozirgi kunda mahalla jinoyatchiligining oldini olishda, jinoyat qilishga moyil hamda jinoyatdan jabrlanishi mumkin bo'lgan shaxslar bilan manzilli profilaktik ishlarni olib borishda «Ijtimoiy profilaktika» tizimi doirasida manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrda "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 801-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish borasidagi asosiy dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan respublikamizning eng chekka qishloqlaridagi mahallalarda ham xavfsiz sharoitlarni yaratish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, o'tgan davrda mahalla tizimini isloh etishga qaratilgan bir qancha qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi.

Islohotlar natijasida, jinoyatlarning oldini olish bo'yicha o'ziga xos tizim yaratildi. Jumladan, Ichki ishlar, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik, Yoshlar siyosati va sport vazirliklarining "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish mexanizmlarini belgilash to'g'risida"gi qo'shma qarori qabul qilindi.

Bunda huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar bilan yakka tartibda ishlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlar tartibi belgilab berildi. Ushbu chora-tadbirlarning yagona monitoringini olib borish va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etgan holda raqamlashtirish Ichki ishlar vazirligi zimmasiga yuklatildi.

Shu asosda, "mahalla yettiligi" faoliyatini onlayn monitoring qilish, ish samaradorligini oshirish, ortiqcha vaqt va qog'ozbozlikning oldini olish maqsadida "E-ijtimoiy profilaktika" elektron axborot tizimi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Ushbu tizim orqali profilaktika inspektorlari tomonidan xonadonlar, oilalar va profilaktik hisobdagi shaxslar o'rganilib, huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar aniqlanib, elektron xulosalar tuzilib, "mahalla yettiligi" vakillariga taqdim etilmoqda. "Mahalla yettiligi" tomonidan xulosalar bo'yicha ijtimoiy profilaktika obyekti hisoblangan shaxslarning muammolari hal etilmoqda.

Jumladan, mahalla raislari, profilaktika inspektorlari, hokim yordamchilari, xotin-qizlar faollari, yoshlar yetakchilari, ijtimoiy xodim, soliq xodimlari tomonidan ishsizlarning ishga joylash-tirilishi, bir marotabalik moddiy yordam va oziq-ovqat maxsulotlari berilishi, subsidiya olishda yordam ko'rsatilishi, hunarmadchilikka jalb qilinishi, kasbga o'qitilishi, dehqonchilik uchun yer maydoni ajratilishi, tadbirkorlikka jalb qilinishi, xotin-qizlarga tibbiy, psixologik, moddiy yordam ko'rsatilishi, yoshlarning kontrakt pullari, harbiy xizmat to'lovlari to'lab berilishi va boshqa yordamlar ko'rsatilishi nafaqat o'g'rilik, balki mahallada sodir etilishi mumkin bo'lgan har qanday jinoyat yoki huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasidagi ishlarimizni yanada samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda.

Joriy etilgan yangi tizim natijasida 2024-yilning 12 oyida mahalla hududida sodir qilingan jinoyatlar 23 475 taga (24 556 *tadan* 23 475 *taga*, 4,4 foizga yoki 1 081 *taga kamaygan*) kamayishiga, "qizil" mahallalar salmog'i 41,3 foizga yoki 948 taga kamayishiga erishilgan.

Xususan, ijtimoiy profilaktika obyekti sifatida xulosa berilgan shaxslarning 99,9 foizi tomonidan jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmagan.

So'nggi vaqtlarda mamlakatimizda "Obod va xavfsiz mahalla" yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda, jinoyatchilikni jilovlash, huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarni sog'lom va to'g'ri hayot tarziga qaytarish yo'nalishida **ayrim muammolar** ham mavjud.

Xususan, profilaktika inspektorlari tomonidan ijtimoiy profilaktika obyektlariga berilayotgan ayrim xulosalar "mahalla yettiligi" vakillari tomonidan o'z vaqtida elektron ijroga qabul qilmaslik, xulosalar asosida yakka tartibda ijtimoiy moslashtirish dasturlarini rasmiyatchilik uchun shablon tarzida tuzish, muammoni hal qilmasdan, asossiz qo'shma xulosalar rasmiylashtirish, shuningdek, profilaktika inspektorlari tomonidan ham xulosani noto'g'ri rasmiylashtirish va noto'g'ri yuborish holatlariga yo'l qo'yilmoqda.

Yuqoridagi kamchiliklarga barham berish, shuningdek yurtimizda “Obod va xavfsiz mahalla” tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, 2024-yil 30-noyabrda Vazirlar Mahkamasining **“Obod va xavfsiz mahalla”** tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 801-son qarori qabul qilindi.

Bunda “mahalla yettiligi” va ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari uchun ham aniq ishlash mexanizmlari belgilab berildi.

Qaror asosida ijtimoiy profilaktika tadbirlariga alohida ta’rif berildi:

Ijtimoiy profilaktika tadbirlari – huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordamlar ko‘rsatishda amalga oshiriladigan tadbirlar majmui.

Ushbu qaror asosida belgilab berilgan mahallada jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini kuchaytirish borasidagi ustuvor vazifalarga to‘xtalsak:

Birinchidan, qarorga asosan mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektori ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar sifatida belgilandi.

Ularga qo‘shimcha ravishda mehnat, tibbiyot xodimlari, maktab direktori va maktab psixologi, inspektor-psixolog hamda tuman (*shahar*) davlat organlari va tashkilotlari xodimlari ham ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar sifatida belgilandi.

Ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi tashkilotlar doirasining kengayishi aholi bilan ishlash, muammolarini ijobiy hal etish samaradorligi va sifatini tubdan oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy profilaktika tadbirlari 16 ta toifa shaxslar bilan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yildi:

a) *huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli bo‘lgan shaxslar*:

1) band bo‘lmagan yoki doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan ishsiz shaxslar;

2) spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aql-irodasiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo‘lib qolgan shaxslar;

3) tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarga ruju qo‘ygan shaxslar;

4) g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar;

5) qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlar;

6) ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari;

7) davlat ko‘magiga muhtoj “og‘ir” toifadagi yoshlar;

8) huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar;

9) ajrim yoqasiga kelib qolgan va nizoli oilalar;

10) yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar;

11) muntazam tazyiq va zo‘ravonlikka uchrab kelayotgan xotin-qizlar;

12) jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan shaxslar;

13) og‘ir ahvolga tushib qolgan va tushib qolish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslar;

14) tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan shaxslar;

b) *huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli bo‘lgan shaxslar*:

15) parvarishga muhtoj yolg‘iz keksalar;

16) nogironligi bo‘lgan va og‘ir kasallikka chalingan shaxslar kiradi.

Uchinchidan, qarorda profilaktika inspektori tomonidan huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli bo‘lgan 16 ta toifani aniqlashning aniq tartibi belgilab berildi.

Bular:

aholini “xonadonbay” o‘rganish;

mahalla faollari, uyboshi va ko‘chaboshilar bergan ma’lumotlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;

jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror taqdimnomasi;

ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar va unga ko'maklashuvchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar;

ommaviy axborot vositalari, internet jahon axborot tarmog'i hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali olingan ma'lumotlar;

manfaatdor davlat organlari va tashkilotlari tomonidan berilgan boshqa ma'lumotlar asos bo'ladi.

To'rtinchidan, qarorda "mahalla yettiligi" va ko'maklashuvchi subyektlarning hamkorlik mexanizmi ham belgilab berildi.

Bunda profilaktika inspektori tomonidan ijtimoiy profilaktika obyektlariga nisbatan "E-ijtimoiy profilaktika" elektron axborot tizimida (*elektron*) xulosa tayyorlanadi.

Xulosada quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:

ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslar bilan o'tkazilgan profilaktik suhbatlar;

ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslarning turmush tarzi va ijtimoiy muammolari o'rganilganligi;

o'z vakolatlari doirasida tegishli davlat organlari va tashkilotlaridan olingan ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslar va ularning oila a'zolari haqidagi ma'lumotlar.

Shakllantirilgan elektron xulosa tizim orqali ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlarga tegishlilik bo'yicha yuboriladi:

hokim yordamchisiga – band bo'lmagan yoki doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan ishsiz shaxslar bo'yicha xulosalar;

profilaktika inspektoriga: spirtli ichimlik, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aqlirodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo'lib qolgan shaxslar; qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarga ruju qo'ygan shaxslar; g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar; jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan shaxslar; qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlar bo'yicha xulosalar;

yoshlar yetakchisiga: ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari; davlat ko'magiga muhtoj

"og'ir" toifadagi yoshlar; huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bor yoshlar; spirtli ichimlik, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aqlirodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo'lib qolgan yoshlar; qimor va tavakkalchilikka asoslangan va boshqa o'yinlarga ruju qo'ygan yoshlar bo'yicha xulosalar;

xotin-qizlar faoliga: ajrim yoqasiga kelib qolgan va nizoli oilalar; yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar; muntazam tazyiq va zo'ravonlikka uchrab kelayotgan xotin-qizlar; jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan xotin-qizlar bo'yicha xulosalar;

ijtimoiy xodimga: og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar; parvarishga muhtoj yolg'iz keksalar; nogironligi bo'lgan va og'ir kasallikka chalingan shaxslar;

solliq inspektoriga tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan shaxslar bo'yicha xulosalar yuboriladi.

Mahalla raisi ushbu shaxslar bilan mahallaga birlashtirilgan davlat organlari va tashkilotlari vakillarini jalb etgan holda ijtimoiy profilaktika tadbirlari hamkorlikda tashkil etilishini ta'minlaydi.

Axborot tizimi orqali yuborilgan xulosa "mahalla yettiligi" vakili tomonidan uch ish kunida o'rganib chiqilib, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish uchun qabul qilinadi yoki rad etish to'g'risida asosli xulosa tayyorlaydi.

Profilaktika inspektori tomonidan yuborilgan xulosani rad etish to'g'risida xulosa tayyorlangan taqdirda, taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarda aniqlangan kamchiliklar ko'rsatilib, ularni bartaraf qilish hamda tegishli hujjatlarni ko'rib chiqish va takroran yuborish uchun axborot tizimi orqali profilaktika inspektoriga qaytariladi.

Qabul qilingan xulosa bo'yicha uch ish kuni ichida "mahalla yettiligi" vakili axborot tizimi orqali o'zining yakka tartibdagi ijtimoiy moslashtirish dasturini ishlab chiqadi.

Dasturda ijtimoiy profilaktika obyektiga nisbatan amalga oshiriladigan ijtimoiy profilaktika tadbirlari va ularning muddatlari aks ettiriladi.

Dasturning har bir bandida belgilangan vazifalarning bajarilganligi to'g'risida dalolatnoma yoki ma'lumotnoma shaklidagi hujjatlarga amalga oshirgan ishlari bo'yicha muntazam ma'lumotlarni kiritib, asoslantiruvchi fotosurat yoki hujjat (*PDF shaklda*) yuklab boradi.

Axborot tizimiga kiritilgan ma'lumotning haq-qoniyligi uchun uni kiritgan shaxs shaxsan javobgar hisoblanadi.

Ijtimoiy moslashtirish dasturida belgilangan vazifalarni to'liq bajarib, ijobiy natijaga erishganidan so'ng, mahalla vakili ushbu shaxsga nisbatan ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini yakunlash haqida qo'shma xulosa tuzib, elektron imzosi bilan tasdiqlaydi va kelishish uchun profilaktika inspektoriga yuboradi.

O'z navbatida, profilaktika inspektori dastur asosida amalga oshirilgan ishlarni o'rganib chiqib, asosli ravishda qo'shma xulosa qilinganligini elektron imzosi bilan tasdiqlaydi.

Beshinchidan, qarorga ko'ra, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishda ko'maklashuvchi shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'z vakolatlari doirasida ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlarga (*ya'ni, "mahalla yettiligi" vakillariga*) ko'maklashishi tartibi belgilab berildi.

Bunda:

- mehnat organi xodimiga band bo'lmagan yoki doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan ishsiz shaxslar;

- tibbiyot xodimiga: spirtli ichimlik, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aql-irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo'lib qolgan shaxslar; parvarishga muhtoj yolg'iz keksalar; nogironligi bo'lgan va og'ir kasallikka chalingan shaxslar;

- maktab direktori, maktab psixologi va inspektor-psixologga: muntazam tazyiq va zo'ravonlikka uchrab kelayotgan o'quvchilar; qarovsiz va nazoratsiz qolgan, shuningdek, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli o'quvchilar; spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aql-irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo'lib qolgan o'quvchilar; qimor va tavakkalchilikka asoslangan

va boshqa o'yinlarga ruju qo'ygan o'quvchilar biriktiriladi.

Ijtimoiy moslashtirish dasturlarini amalga oshirishga ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlarning (*ya'ni, "mahalla yettiligi" vakili*) murojaati asosida mahalla faollari, imom-xatib va otinoyilar ham taklif etilishi mumkin.

Oltinchidan, qaror bilan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish jarayonida vujudga kelayotgan muammolarni hal etish, shuningdek ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlarga (*ya'ni, "mahalla yettiligiga"*) amaliy, metodik va boshqa yordam ko'rsatish maqsadida, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini nazorat qilib borish tartibi ham belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-1-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Toshkent shahar Olmazor tumani-ning "Ziyo" mahallasida o'rganishlar olib borilganida, "*E-Ijtimoiy profilaktika*" tizimi orqali joriy yilning 6 oyi davomida 41 ta xulosa berilganligi, ularning 32 tasi qo'shma xulosa bilan yakunlanganligi va 9 tasi bo'yicha ish jarayoni davom etayotganligi ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, ijtimoiy profilaktika obyektlariga quyidagi yo'nalishlarda yordam ko'rsatilgan:

23 ta holatda fuqaroning turmush tarzi, xulq-atvori, oilaviy sharoiti, qobiliyati va kasbiy layoqati o'rganilgan, 7 ta holatda nizolari bartaraf etilib, sog'lom turmush tarziga qaytarilgan, 2 nafar fuqaro o'zini o'zi band qilgan, 1 nafari ishga joylashtirilgan, 3 nafari mono markazda kasb-hunarga o'qitilgan, 1 nafar tazyiq o'tkazayotgan shaxs bilan huquqiy, psixologik tushuntirish ishlari olib borilgan.

Tadqiqotimiz mavzusi bo'lgan mahalla jinoyatchiligining oldini olishda ijtimoiy profilaktikaning roli shundan iboratki, bunda profilaktik tadbirlar ma'lum bir toifadagi shaxslar bilan olib borilishi, jumladan, mahalla hududida istiqomat qiluvchi band bo'lmagan yoki doimiy daromad

manbaiga ega bo'lmagan ishsiz shaxslar, spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aql-irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo'lib qolgan shaxslar, tavakkalchilikka asoslangan va boshqa o'yinlarga ruju qo'ygan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar, qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlar, ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari, davlat

ko'magiga muhtoj "og'ir" toifadagi yoshlar, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan yoshlar, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan shaxslar, huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli bo'lgan shaxslar aniqlanib, ular bilan manzilli profilaktik tadbirlar olib borilishidir.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Gazeta.uz. nashrining 2019-yil 10-yanvardagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlashda yangi tizim: hamma xizmatlar bir joyda" sarlavhasi ostidagi maqolasi.
2. Избранные произведения Иеремии Бентама. Т. 1. – СПб., 1867. – С.39.
3. Советское уголовное право. Общая часть. – М., 1974. – С.77.
4. Советское государство и право. – 1991. – №5. – С.151.
5. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" 2014-yil 14-maydagi 371-son qonuni.
6. <https://lex.uz/uz/docs/2387357>.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Obod va xavfsiz mahalla tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 30-noyabrda 801-son qarori.
8. Q.R.Abdurasulova. Kriminologiya: Darslik / Mas'ul muharrir yu.f.d., prof. M.H. Rustamboyev. – T.: TDYUI nashriyoti, 2008. – 305 b.
9. Ichki ishlar, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik, Yoshlar siyosati va sport vazirliklarining "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish mexanizmlarini belgilash to'g'risida" 2023-yil 30-martdagi qo'shma qarori.
10. Jinoyatchilik tendensiyalari va omillari davlat hisobotlari (2024-yil bo'yicha): Axborot-tahliliy hujjat. – T.: O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2025. – 122 b.
11. Kriminologik tadqiqotlar davlat hisoboti: Axborot-tahliliy hujjat. – T.: O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2025. – 92 b.

